

O'ZDJTU REKTORI ILXOMJON TUXTASINOV TABRIGI

Assalomu alaykum, “**Global lingvistika: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar**” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari – Hurmatli mehmonlarimiz, hamkasblar, doktorant-magistrlarimiz va talabalar!

Bugun biz bu yerga tilshunoslik, til ta'limi hamda madaniyatlararo muloqot sohalaridagi dolzarb muammolarni va uning istiqbolini muhokama qilish maqsadida to‘planganmiz. Ilmiy tadbir doirasida: 1. **Zamonaviy tilshunoslikda ta’lim sifatini ta’minalash masalalari.** Jahon tilshunosligidagi muammolar va tendensiyalar. 2. **Tilshunoslikning dolzarb muammolariga yosh tadqiqotchilarining qarashlari.** 3. **Nazariy va amaliy tilshunoslik masalalari.** 4. **Tillarning o‘zaro ta’siri tizimi.** 5. **Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini va chet tillarini o‘qitish metodikasi.** Tilshunoslikda sun’iy intellekt integratsiyasi kabi masalalar bahs maydoniga olib chiqiladi.

Globallashuv, raqamlashtirish, migratsiya jarayonlari va xalqaro aloqalar tilshunoslik oldiga yangi vazifalarni qo‘yib, ilm-fan uchun yangi ufqlarni ochmoqda. Aynan shu bois bugungi kunda dunyo tilshunoslari o‘rtasida o‘zaro muloqot massalalari, bilimlar almashinushi va shu yo‘ldagi qilinishi mumkin bo‘lgan hamkorlik har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bizning universitetimiz bunday muhim masalani hal qilish yo‘lida ilmiy va madaniy muloqot uchun maydon bo‘layotganidan faxrlanamiz.

Bugun Ilm-fan, ta’lim va yoshlarning intellektual salohiyati mamlakatning barqaror kelajaginining asosiy ustunlariga aylanmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘p marotaba ilm-fan, ma’rifat va madaniyatning ahamiyatini ta’kidlagan holda: “Biz Uchinchi Renessans – ma’naviy va ilmiy yuksalish davrining asoslarini yaratmoqdamiz. Bu yuksalish iqtisodiyotdan emas, balki ilm, ta’lim va tarbiyadan boshlanadi” kabi jumlalarni keltiradilar.

Men o‘z so‘zimni muxtasar qilgan holda sizlarga – Konferensiya ishtirokchilariga samarali ish, dolzarb muhokamalar, yangi g‘oyalar va ushbu yo‘lda ilmiy yutuqlar tilayman. Ishonamanki, ushbu konferensiyyada muhokama qilinadigan 100lab kelib tushgan maqolalar lingvistika fani rivojiga xizmat qiladi.

Mazkur muhim tadbiriga tayyorgarlik ko‘rishda o‘z hissasini qo‘shgan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Umumiyl tilshunoslik kafedrasи

hamda barcha hamkorlar va ishtirokchilarga anjuman bosqichlarida muvaffaqiyat tilayman.